



O'QUVCHILARDA FUQAROLIK TARBIYASI ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH

Abdullayeva Dilorom Nomonovna

QDU, Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining maqsadi erkin, demokratik, insonparvar huquqiy davlat va jamiyatni qurish ekanligi, bu jamiyatni bunyod etish jarayonida yangi ijtimoiy fuqarolik tarbiyasini tashkil etish vazifalarini yanada murakkablash kerakligi lozimligi, Zero, demokratik, huquqiy jamiyat barpo etilishining muvaffaqiyati fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy onglik darajasi, fuqarolik fazilatlarining qaror topganligi va ijtimoiy faollik ko'rsatkichlariga bog'liqlik jihatlari ochib beriladi.

Mustaqillik, fuqarolik jamiyati va demokratiya tushunchalari o'rtasidagi uzviy aloqadorlik muhim ahamiyatga ega. Zero, mustaqil mamlakatni demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati institutlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. SHu bois yurtimizda istiqloqlning ilk kunlaridanoq demokratik yangilanish, erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo'li tanlab olindi.

Fuqarolikning ijtimoiy asosi yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bo'lib, unda fuqarolarning shaxsiy manfaati jamiyat manfaati bilan qo'shilib, uyg'unlashib ketadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mazmunida aks etgan g'oyalar, demokratik talablar hamda axloqiy-huquqiy me'yorlarga muvofiq faoliyat yuritish ijtimoiy fuqarolik munosabatlarining muhim qoidasiga aylanadi.

Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy ob'ekti fuqaro sanaladi. Fuqaro fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxsdir.

Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik. Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatib borish.
2. O'quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish.
3. O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.

4. O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.

5. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.

6. Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish.

O'quvchilarning fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsga davlat Konstitutsiyasida ko'rsatilgan huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarish xususida ma'lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarni bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Respublika Bosh qonunida shaxsning quyidagi huquqlari kafolatlanadi: yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, ayblanayotgan shaxs ishining sudga qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilishi, har kim o'z sha'ni va obro'siga tahdid qiladigan tajovuzlardan, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalanih va turar-joy dahlsizligi, Respublika hududida bir joydan ikki joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish, fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, vijdon erkinligi, davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki o'z vakillri orqali ishtirok etish, qonuniy mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish, kasaba uyushmalarida, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish, saylash va saylanish, mulkdor bo'lish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, dam olish, qariganda yoki mehnat qilish layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda ijtimoiy ta'minotdan foydalanish, tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi.

O'quvchilarga huquqlari borasidagi bilimlarni berish bilan birga fuqarolarning burchlari nimalardan iborat ekanligi haqida ma'lumot berish, bu xususida o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish ko'zlangan maqsadga erishishda muvaffaqiyat omili bo'ladi. Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarda ko'zda tutilgan talablarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish; O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy-madaniy merosini avaylab asrash; fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish; qonunlar bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lash; O'zbekiston Respublikasini himoya qilish. Yuqorida qayd etilgan burchlarni bajarish O'zbekiston Respublikasining fuqarosi sanaluvchi har bir kishining muqaddas burchidir.

Ijtimoiy hayotda fuqarolik madaniyatning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish: jamiyat va shaxs (fuqaro) manfaatlariga to'la mos keladi. SHu sababli Respublika mustaqilligi sharoitida fuqarolik tarbiyasini tashkil etish mazmunini tubdan yangilash zaruriyati yuzaga keldi. Fuqarolik tarbiyasini keng ko'lamli (kompleks) tarzda tashkil etish – bugungi kun da'vati va talabi bo'lib qolmoqda. Ushbu talabni ijobiy ravishda hal etish oila - ta'lim muassasalari - jamoatchilik - davlat - jamiyat o'rtasidagi mustahkam hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Fuqaro – fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxs. O'z fuqarolariga ega bo'lish har bir davlatning zarur va

muhim belgisi sanaladi. Fuqarolarning mavjudligi sababli davlat mavhum tushuncha bo'lmay, muayyan mexanizmga ega sub'ekt sifatida maydonga chiqadi. Huquqiy o'rni qonun yo'li bilan kafolatlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo'lishidan qat'iy nazar, ma'lum bir davlatga qarashliligi holati fuqarolik deyiladi. O'zbekiston fuqarosi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan tegishli qoidalar, belgilangan huquqlardan foydalana oladi, qonunlarda ko'rsatilib o'tilgan burchlarni bajaradi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki: Fuqarolik huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublikdir. Demak, «fuqarolik o'z davlatiga nisbatan huquq va burchlar bilan bog'langan, huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviy yetuklikni nazarda tutadi»

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, Dilorom Nomonova. "QADRIYATLAR ASOSIDA O'QUVCHILARINI IJTIMOYILLASHTIRISHDA «ODOB AS-SOLIHIN» ASARINING O'RNI." *Academic research in educational sciences 3.NUU Conference 2 (2022): 205-208.*

2. Abdullayeva, Dilorom. "Practical Basis of Socialization of Children on The Basis of Cooperation Between Preschool Educators and The Family." *Eurasian Journal of History, Geography and Economics 2 (2021): 24-26.*

3. Ravshanbek, Jumaboyev. "CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES." *Yosh Tadqiqotchi Jurnal 1.4 (2022): 304-309.* 4. Nargiza, Yunusalieva. "SOCIAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS AND DEVELOPMENT OF VALUES." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.1 (2022): 300-305.*

4. Ziroat, Azizova. "CONCEPTUAL FUNDAMENTALS OF PREPARING CHILDREN FOR SOCIAL PROTECTION." *Yosh Tadqiqotchi Jurnal 1.5 (2022): 404-410.*

5. Najmiddinovna, Rakhimova Feruza, Yuldasheva Malohat Erkinovna, and Karimova Mukarram Khalimovna. "Pedagogical Aspects Of Improving The Socio-Pedagogical Activity Of Students In Multimedia Presentations." *Journal of Positive School Psychology 6.11 (2022): 1584-1590.*

6. Nargiza, Yunusalieva. "SOCIAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS AND DEVELOPMENT OF VALUES." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.1 (2022): 300-305.*

1. Nurmatova, Madina. "History Of Origin And Social And Pedagogical Need Of Tutor's Activity." *International Bulletin of Applied Science and Technology 3 (2023): 151-154.*

2. Nurmatova, Madina Odiljon Qizi. "IS'XOQXON IBRATNING ILM VA MA'RIFAT SOXASIDAGI XIZMATLARI." *Academic research in educational sciences 3.NUU Conference 2 (2022): 419-422.*

3. НУРМАТОВА, МАДИНА ОДИЛЖОН КИЗИ. "Психолого-педагогические особенности детей старшего дошкольного возраста." *Молодежь и XXI век-2015. 2015.*

4. Нурматова, Мадина. "УЧИТЕЛЬ-РУКОВОДИТЕЛЬ ВОСПИТАНИЯ." *Актуальные научные исследования в современном мире* 8-2 (2018): 58-60.

5. Мадина, Нурматова. "ПРОИЗВЕДЕНИЕ" ОДОБ АС-САЛИХИН" НАСТОЛЬНАЯ КНИГА С

6. ВЕЖЛИВОСТИ И ПРАВИЛ ПОВЕДЕНИЯ." *Актуальные научные исследования в современном мире* 5-6 (2018): 53-55. Madina, N. (2024). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF CIRCULATION IN THE TRAINING OF FUTURE SPECIALISTS ON THE BASIS OF INDICATIVE EDUCATIONAL MODELS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 4(11), 144-146.

7. Мадина, Н. (2024). Педагогические условия совершенствования системы циркуляции в подготовке будущих специалистов на основе показательных образовательных моделей. *Евразийский журнал академических исследований*, 4 (11), 144-146.

8. Nurmatova, M. O., & Abdullayeva, D. N. (2025). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING KASBIY FAOLIYATIDA O 'QITUVCHILIK MAHORATNING TUTGAN O 'RNI VA AHAMIYATI. *Inter education & global study*, 3(5 (1)), 213-218.

9. Зияев А.Н., Хушназарова М.Н., Меликузиева М.А., Абдулладжанова С.А., Абдуллаева Д., Нурматова М. и Екубьонова Г.Х. (2024). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ. *CAHIERS MAGELLANES-NS*, 6 (2), 7938-7944.